

Raxmanov Dustmurod Abdinazarovich

f.d. PhD, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali

Nazarova Nilufar Jo'rayevna

katta o'qituvchi, Toshkent davlat transport universiteti

Jumaniyazova Nasiba Saparbayevna

f.d. PhD, Toshkent davlat transpord universiteti

Annotatsiya. *Ijtimoiy xizmatning tarixini o'rganish shundan dalolat beradiki, bu xayrli amaliy faoliyat, ijtimoiy munosabatlarda ma'naviy komponentlarni amaliy ifodalanishini belgilash imkonini beradi. Ijtimoiy xizmat, faoliyat turi sifatida dunyoning barcha mamlakatlarida tobora rivojlanib bormoqda. Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda ijtimoiy xizmat sohasining shakllanish jarayoni tahlil etiladi. Ijtimoiy xizmat ko'rsatishda milliy qadriyatlarning ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy xizmat, turmush tarzi, ijtimoiy burch, saxovatli bo'lish, xayr-ehson.*

Tarix sahifalariga nazar solsak [12; 16.256; 2; 8; 9], madad va sadaqa berish, ko'maklashish, yordamga muhtojlarga yordam qo'lini cho'zish xalqimiz hayot tarzi bilan bog'langan. I.M.Jabborov o'zbek xalqining turmush tarzi haqida fikr yuritib, "O'zbeklarning ijtimoiy turmushdagi eng qadimgi o'ziga xos udumlaridan yoshiga qarab guruhlariga bo'linish – bolalik, o'spirinlik, bolag'at yoshi va qarilik bo'lib, u bilan bog'liq turli urf-odat va marosimlar hozirgacha saqlanib kelgan. Erkaklaru ayollar yoshiga qarab o'z tengdoshlari bilan to'rtta guruhga bo'linib, ularga har joyda har xil nom berilgan (qator, ulfat, tengqur, jo'ra) va ular o'zlarining tengqurlari davrasini tashkil qilganlar. Bir yoshdagi guruhdan ikkinchi yosh guruhiga o'tish maxsus marosim orqali amalga oshirilgan. Har bir yoshdagi guruh o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan va ular kiyimi, bezaklari, sochining shakli, ijtimoiy burchi va xulq-atvori bilan ham bir oz ajralib turgan" [12.70] – deb yozadi. Darhaqiqat, ijtimoiy tabaqalanish darajasi borligi uchun, ko'mak berish ham o'ziga xos tarzda kechgan. Bunda, savob ishlarni amalga oshirish, xayr-ehson qilish, sadaqa berish va saxovatli bo'lish singari amallar ham o'zbek xalqining iymon va e'tiqodi tarzida kechganligini ko'rsatadi.

Bu xususida Imom al-Buxoriy o'zining "Al – Jomi' as-Sahih" nomli hadislar to'plamida "Ketidan ozor ergashtirib keladigan sadaqadan ko'ra, ko'ngilni ko'taradigan va mag'firatli so'z afzaldir" [10] -deyiladi. Bu haqda Alisher Navoiy o'zining "Arbain hadis. Qirq hadis sharhi" asarida shunday dedi:

"Yaxshi so'z birla hojat ahlin so'r,
Bermasang yaxshi to'madin sadaqa.
Ne uchunkim rasul qavli bila:

Yaxshi soʻz bordur oʻylakim sadaqa.

Koʻpchilikning nazarida sadaqa goʻyo faqat kambagʻal, faqir, muhtoj va beva-bechoralarga qilinadigan xayr-ehsondir. Sadaqaning mazmuni esa keng maʼnoda talqin qilinadi. Hadis mazmuniga binoan, kishining aytgan har bir yaxshi soʻzi, ezgulik, yaxshi niyat bilan oʻzgalarning koʻnglini koʻtarishi ham sadaqa boʻladi” [11.52-53].

Xalqimizda **“Bir mayizni qirq kishi boʻlib yebdi”** [20.12] degan maqolida saxiylik, himmatlilik, totuvlik, ahillik, hamjihatlikka undovchi tushunchalar oʻz aksini topgan. Maqolning mazmun-mohiyatini yanada teranroq tushunish uchun yuqorida zikr etilgan tushunchalarni sharhlash maqsadga muvofiqdir. Xususan, “Saxiylik - bu hech kimdan narsasini, yaxshiligini ayamasklik, hotamlik xislatini anglatuvchi tushunchadir” [15.506]. Saxiy va hotam kishining yaxshiligi va sahovatpeshaligidan uning atrofdagi qon-qarindoshlari, doʻst-birodarlari, quni-qoʻshnilari, yaqinlari tashqari begonalar ham hamisha bahramand ekanligi xususida Xusrav Dehlaviy:

“Hotam kishi uyda tutatganda ud,

Qoʻshni hovlida ham shul muattar dud” [22.124] – deya taʼkidlaydi.

“Himmat” (arab. gʻayrat, shijoat, joʻshqinlik, harakat, hafsala, qunt)-odamgarchilik, muruvvat yuzasidan qilinadigan yaxshilik, yaxshi ish, yordam, insonga xos tuygʻu xislatni angaluvchi tushuncha [15.751] boʻlib, bu borada Fariduddin Attor:

“Himmatli oliyga yetsa har koʻngul,

Davlati beminnat unga yuzlanur” [21.39] – deya insonlarni himmatli boʻlishga chorlash orqali qalb sofligi, koʻngil xotirjamligi, maʼnaviy yetuklikka undaydi.

“Totuvlik” tushunchasini esa ikki: tor va keng maʼnoda izohlash mumkin. Tor maʼnoda odamlar, oila, mahalla yoki guruh aʼzolari orasidagi oʻzaro maʼnaviy – murosaviy munosabat [1; 3; 4; 5; 6; 7; 13; 14; 17; 18]; keng maʼnoda, fuqarolarning maʼnaviy – axloqiy mezonlari, xatti-harakatlari, hayotga munosabatlarida koʻzga tashlanadigan maʼnaviy hodisani anglatuvchi tushuncha [15.561-562] sifatida izohlansa, “Ahillik” esa – yagona oila, yagona Vatan tuygʻusi, umumiy maqsad va manfaatga asoslangan, doʻstlik, qon-qarindoshlik, inoqlik va xayrixohlik natijasida hosil boʻladigan maʼnaviy yaqinlikdir [15.58] – deb qayd etilgan.

Insonning hayot tarzini egallashi, oʻz-oʻzidan vujudga kelmaydi. Bunda ota-ona, yaqin qarindoshlar, doʻstlar, ustozlar hamda piru-barnolar namuna, ibrat boʻlishadi. **“Bir odamga bir odam sababchi boʻladi”** [23.44] degan maqol orqali koʻpincha odamzot umri davomida turli vaziyat va holatlar, voqea va jarayonlarga duch keladi va bunday holatda kimdir sababchi (muvafaqqiyat, omad, baxt va b.) yoxud aybdor (muvafaqqiyatsizlik, omadsizlik, baxtsizlik singari koʻngilsizliklarga uchraganda) sanaladi.

Markaziy Osiyo mintaqasida qadimdan keksalarga hurmat va ehtirom koʻrsatish, ularga gʻamxoʻrlik qilish tarbiyaning tarkibiy qismi boʻlib kelgan. Bunda jins, yosh, kasb kabi ijtimoiy-madaniy omillar belgilovchi hisoblangan. Bu oʻziga xoslikning maʼnaviy asosi Markaziy Osiyo xalqlarining turmush tarzida dehqonchilik bilan shugʻullanishi va jamoaviy tarzda mehnat qilish singari omillar bilan izohlanadi. Mazkur holat maʼnaviy

birlik tuyg'usi bilan bog'liq bo'lib, milliy ma'naviyatning tarkibiy elementi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shu bois mehr ko'rsatish, oqibatli bo'lish, g'amxo'rlik qilish milliy ta'lim-tarbiya tizimida vazifadorligi jihatidan ajralib turishini ko'rsatib o'tish lozim. Inson o'z yaqinlariga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish bilan birga, ularning g'am-tashvishlariga hamdardlik qilishga tayyor turish fazilatini o'zida mujassam etishi lozim. Aynan ana shu jihatlar bizning davrimizgacha yetib kelgan xalq og'zaki ijodi namunalarida, ya'ni rivoyat va ertaklar, afsona va maqollarda, shuningdek, "Avesto", "Qur'on", Hadislar to'plami kabi diniy manbalar va o'tmish ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan nodir qo'lyozmalarda ham o'z ifodasini topgan. Masalan, xalq og'zaki ijodining gavhari hisoblangan maqollarda keksalik gashti hamda bu ulug' yoshga to'lgan insonlarning ibratli hayot tarzi va tajribasi aks etgan. Jumladan, Sh.Shomaqsudov va SH.Shorahmedovlar hammuallifligida chop ettirgan "Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati"da: "Keksalik – ko'prik" – ko'prikdan har narsa o'tadi, u bardosh beradi. Shuningdek, keksalar ham o'z umrlari davomida boshlaridan ko'p yaxshilik-yomonliklarni o'tkazganlar, bunga ko'nikma hosil qilib, chidamli-bardoshli bo'lib qolganlar. Shu boisdan keksalikni ko'prikka (bog'lovchi sifatida) tashbih qilingan bo'lsa, "Keksani kuchidan so'rama, ishidan so'ra"; "Keksaga yo'l ber, o'zing ham keksaysan" [23.206] kabi maqollari orqali keksa odamning jismoniy kuchsizligidan, o'jizligidan kulma, aksincha unga havas qilib, ularning tajribasidan foydalanish lozimligi hikmat tarzida ko'rsatib o'tilgan. Negaki, u o'zining uzoq umri davomida ko'p yumushlarni bajargan, turli hayotiy vaziyalarga tushgan, mehnat bilan, hayot harakatlari bilan qartaygan. R.Samarovning ta'kidlashicha "har bir xalq, avvalo, o'zining hayotiy tajribalariga tayangan holda hayotiy yo'lini, kundalik faoliyati va kuzatishlarini umumlashtirilgan qisqa va lo'nda ko'rinishda ifodalangan maqollarni yaratgan" [19.10-15].

Xulosa o'rnida quyidagilarni ilgari surish mumkin:

birinchidan, xalq og'zaki ijodi namunalarida mujassamlashgan g'oya orzu-umid tarzda yaratilgan. Lekin bu ijod namunalari hayot tajribasidan olgan saboqlar, mushohada yuritishning xulosaviy ko'rsatkichi, umr davomida jamlangan maishiy bilim, vorislik asosida o'zlashtirilgan qadriyat va an'analar ko'rinishida milliy maishiy ongning vazifasi sifatida ifodalangan. Ijtimoiy xizmat tizim sifatida shakllanish genizisini xalq og'zaki ijodi namunalarida ifodalanganligi bilan ahamiyatlidir;

ikkinchidan, Qadimiy tarix, milliy qadriyatlarimizga rioya etgan holda ijtimoiy xizmat ko'rsatishning "milliy modelini" yaratish bunda nomoddiy madaniyat yodgorliklari hisoblangan xalq og'zaki ijodi namunalarini tizimli tahlil etish;

uchinchidan, ajdodlarimizning saxiylik, himmatlilik, xayr-ehson, sadaqa singari tushunchalarga bergan izoh va sharhlari, qarash va fikr-mulohazalarini ijtimoiy falsafiy nuqtai nazardan tahlil etish.

REFERENCES:

1. Axrarova, N. S., Abdukadirova, S. G., Nazarova, N. J. R., & Abdurahmonova, S. A. (2023). DEVIANT XULQLI YOSHLAR BILAN ISHLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1-2), 502-507.
2. Beknazarov, A. A., Rakhmonov, D. A., Normuratova, M. K., & Nasirov, K. J. (2020). Psychological-pedagogical classification of the philosophy of social service. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(7 Special Issue), 2759-2762.
3. Ismoil o'g'li, A. A., Abdumannapovna, M. D., & Jo'rayevna, N. N. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASHDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH SAMARADORLIGI. *PEDAGOG*, 1(5), 610-614.
4. Kurganovna, K. D., & Jo'rayevna, N. N. (2023). YOSHLARDA AXBOROT VA INTERNET MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI. *World scientific research journal*, 12(2), 105-109.
5. RAMATOV, J., BARATOV, R., NAZAROVA, N., KHASANOV, M., & ERNIYOZOV, U. PATRIOTISM IS A STRONG PILLAR OF NATIONAL EDUCATION. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО " Институт управления и социально-экономического развития"*, (12), 70-73.
6. RAMATOV, J., UMAROVA, R., BARATOV, R., SULTANOV, S., NAZAROVA, N., & KHASANOV, M. WAYS OF REGULATING FAMILY RELATIONS AND PREVENTING CONFLICTS (IN THE EXAMPLE OF THE STATE OF UZBEKISTAN). *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО " Институт управления и социально-экономического развития"*, (12), 45-48.
7. RAMATOV, J., UMAROVA, R., SULTANOV, S., NAZAROVA, N., & KHASANOV, M. THE ROLE OF THE SCIENCE OF PROFESSIONAL ETHICS IN THE TRAINING OF SPECIALISTS AND RELATIONSHIP WITH OTHER DISCIPLINES. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО " Институт управления и социально-экономического развития"*, (12), 23-26.
8. Samarov, R. S., & Rakhmonov, D. A. (2016). Social work activity in providing the life of the society (functional-structural analysis). *Theoretical & Applied Science*, (7), 14-16.
9. Sanakulov, A., Rakhmonov, D., & Nazarova, N. (2020). Social Service Technologies and Mechanisms of its Implementations. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(3), 14192-14198.
10. Ал-Бухорий Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Ҳадис: 4 китоб, 1-К. Ал – Жоми ас-Саҳиҳ (Ишонарли тўплам) // арабчадан З. Исмоил тарж. - Тошкент: Қомуслар, 1992. – 386-бет.
11. Алишер Навоий. Арбаин ҳадис. Қирқ ҳадис шарҳи. – Тошкент: “Ёзувчи”, 1991. - 52-53-бетлар.

12. Жабборов И.М. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти (Этномаданий лавҳалар). – Тошкент: Ўқитувчи, 2003. – 208 б.
13. Жуманиёзова, Н. С. (2023). ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ ХАЛҚАРО ХАМКОРЛИК АЛОҚАЛАРИ. *World scientific research journal*, 11(1), 22-33.
14. Жуманиязова, Н. С. (2019). СОВРЕМЕННАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ: ИНТЕГРАЦИЯ И ПРОПОРЦИОНАЛЬНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ. *Экономика и социум*, (11 (66)), 261-263.
15. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2010. 506 – бет.
16. Мухсумадъен Х. Узбеки и вокруг них. Новый взгляд. – Алматы: Дайк-Пресс, 2006. – С.256.
17. РАМАТОВ, Д., СУЛТАНОВ, С., НАЗАРОВА, Н., ЭРНИЯЗОВ, У., ХАСАНОВ, М., & ВАЛИЕВ, Л. ПРАГМАТИЗМ ПРОТИВ ФИЛОСОФИИ ОБЩЕСТВА. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития", (12).
18. РАМАТОВ, Д., УМАРОВА, Р., СУЛТАНОВ, С., НАЗАРОВА, Н., & ХАСАНОВ, М. ФИЛОСОФИЯ И БУДУЩЕЕ. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития", (12).
19. САМАРОВ, Р. С. ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТ ВА АМАЛИЁТ: ИНТЕГРАТИВ ЁНДАШУВНИНГ НАЗАРИЙ БАЁНИ. *PSIXOLOGIYA Учредители: Бухарский государственный университет*, (3), 10-15.
20. Ўзбек ва турк мақоллари. – Тошкент, 1998. -12-бет.
21. Фаридуддин Аттор. Ҳикматлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013.– 39-бет.
22. Хусрав Дехлавий шеърятдан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1979. -124 –бет.
23. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1990. 206 – бет.